

BOLALARDA KREATIVLIKNI O'YIN FAOLIYATI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Islomova Shaxlo A'zam qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda o'yin faoliyatining o'rni, psixologik va pedagogik asoslari, o'yinlar orqali kreativlikni shakllantirishning amaliy metodlari, o'yin muhitining ta'lim sifatiga ta'siri, shuningdek o'yin texnologiyalarining maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'yin faoliyati bolalarning mustaqil va ijodiy fikrlashi, noodatiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kreativlik, o'yin faoliyati, rivojlantiruvchi ta'lim, ijodkorlik, maktabgacha ta'lim, pedagogika, o'yin texnologiyalari.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ ИГРОВУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Исламова Шахло Азам кызы

Чирчикский государственный педагогический университет

Направления «Теория и методика обучения и воспитания (дошкольное образование)»

магистрант 1-го курса

Аннотация: В данной статье анализируется роль игровой деятельности в развитии креативного мышления у детей, рассматриваются психолого-педагогические основы данного процесса, практические методы формирования креативности посредством игровых форм, влияние игровой среды на качество обучения, а также особенности интеграции игровых технологий в систему дошкольного воспитания. По результатам исследования установлено, что игровая деятельность является одним из наиболее эффективных средств развития у детей навыков самостоятельного мышления и способности находить нестандартные решения.

Ключевые слова: креативность, игровая деятельность, развивающее обучение, творчество, дошкольное образование, педагогика, игровые технологии.

FORMATION OF CREATIVE ABILITIES IN CHILDREN THROUGH PLAY ACTIVITIES

Islamova Shahlo Azam kizi

Chirchik State Pedagogical University

Directions "Theory and methodology of teaching and upbringing (preschool education)"

1st year Master's student

Annotation: This article analyzes the role of play in the development of creative thinking in children, examines the psychological and pedagogical foundations of this process, practical methods of forming creativity through play forms, the influence of the game environment on the quality of education, as well as the features of the integration of game technologies into the system of preschool education. According to the results of the study, it was found that play activities are one of the most effective means of developing children's independent thinking skills and the ability to find non-standard solutions.

Keywords: creativity, play activity, developmental learning, creativity, preschool education, pedagogy, game technology.

*Bolalardagi shumtakalikni yo'q qilsangiz,
hech qachon donishmandlarni yarata olmaysiz. [1, 28.]*

Jan Jak Russo

Bu ibora - bolaning tabiiy qiziquvchanligi, harakatga chanqoqligi, savol berishga bo'lgan ehtiyoji va o'yin orqali dunyoni o'rganish xohishini ifodalaydi. "Shumtakalik" bu yerda salbiy ma'noda emas, balki faollik, ijodkorlik, qiziqish, tajriba qilishga bo'lgan intilish sifatida talqin etiladi. Agar

pedagog yoki ota-ona bu holatlarni yo‘q qilishga, bolani haddan tashqari tartib-intizom doirasida cheklashga harakat qilsa, bola ichki motivasiyasini yo‘qotadi, tashabbus ko‘rsatmaydigan, faqat buyruqqa asoslangan shaxsga aylanadi. Natijada esa ijodiy fikrlovchi, tanqidiy yondasha oladigan va mustaqil qaror qabul qiluvchi donishmand shaxs shakllanmaydi.

E.Eriksonning rivojlanish bosqichlari nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh - bu “Tashabbusga qarshi aybdorlik” bosqichi. Agar bolaga tashabbus ko‘rsatish imkoniyati berilmasa va uning har bir harakati “shumlik” sifatida jazolansa, u ichki faolligini yo‘qotadi, o‘ziga ishonchi pasayadi. Bu borada L.S. Vygotskiy esa shunday degan edi, - “Bolada shakllanayotgan har bir yangi sifat - avvalo uning faoliyatidagi erkinlikdan boshlanadi”. [2, 102-103.] Bu degani, bolada yangi bilimlar va ko‘nikmalar aynan o‘yin, qiziqish va tajriba orqali yuzaga chiqadi - bu holatlar “shumtaka-lik” bilan chambarchas bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan iboraga pedagogik xulosa beradigan bo‘lsak, “shumtaka” bo‘lish - bu bolaning “kashfiyotchilik ruhi”, hayotga bo‘lgan qiziqishi va tabiiy rivojlanish belgisi. Shuning uchun, uni yo‘q qilish emas, **to‘g‘ri yo‘naltirish, chegara qo‘ygan holda erkinlik yaratish, va faollikni ijobiy tomonga burish** pedagogik vazifadir. Agar bola doim jim tursa, hech narsaga qiziqmasa, hech narsa so‘ramasa - bu xavotirli belgidir. Aksincha, savol beradi, yuguradi, sinaydi, chalkashtiradi - demak, u o‘smoqda. Maktabgacha yosh davri - bu bolaning aqliy, emotsional, ijtimoiy va jismoniy jihatdan faol rivojlanadigan eng muhim bosqichidir. Bu davrda bola dunyoni o‘ziga xos uslubda - **o‘yin orqali** anglaydi. Shu sababli o‘yin faoliyati maktabgacha ta‘limning asosiy vositasi va yetakchi pedagogik metodi sifatida qaraladi.

D.B. Elkonin o‘yin faoliyatini bola shaxsiyati shakllanishining harakatlantiruvchi kuchi, deb baholagan. U ta‘kidlaganidek, “O‘yin bola uchun nafaqat ko‘ngilochar faoliyat, balki uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish maydonidir”. [3.] O‘yin - bu bolaning erkin ijodiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola atrofdagi dunyo haqida tasavvur hosil qiladi, ijtimoiy rollarni o‘rganadi, muloqot va emotsional aloqalarni shakllantiradi, harakat, tafakkur va til ko‘nikmalarini rivojlantiradi. **L.S. Vygotskiy**ning fikricha “O‘yin bola uchun rivojlanishning yetakchi faoliyatidir, chunki aynan o‘yin orqali u o‘zining yaqin rivojlanish zonasida faoliyat yuritadi”. [4, 109.] Bu degani, bola o‘zining hozirgi imkoniyatlaridan yuqori darajadagi harakatlar va tafakkur faoliyatini aynan o‘yin davomida namoyon eta oladi.

O‘yin orqali ta‘lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari.

Maktabgacha ta‘limda o‘yin orqali ta‘lim-tarbiya quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

Soha	Maqsad
Aqliy rivojlanish	Diqqat, xotira, tafakkur va nutqni faollashtirish
Ijtimoiy rivojlanish	Hamkorlik, muomala madaniyati, empatiya
Jismoniy rivojlanish	Harakat koordinatsiyasi, muvofiqlashtirish
Estetik tarbiya	Go‘zallikni sezish, tasviriy va musiqa o‘yinlari orqali ifoda
Axloqiy tarbiya	Qoidalarga amal qilish, navbat kutish, boshqalarga hurmat bilan qarash

1-jadval

Pedagogik maqsadlarda foydalaniladigan o‘yinlar quyidagicha tasniflanadi:

1.Didaktik o‘yinlar. Ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. Masalan: “Ranglarni top”, “Sonlarni tartibla”, “Obyektni ta‘rifla”. **Ushbu o‘yinlar orqali** bola mantiqiy fikrlash, solishtirish, guruhlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

2.Rolli (syujetli) o‘yinlar. Bola turli ijtimoiy rollarni ijro etadi: shifokor, o‘qituvchi, ona, quruvchi va h.k.

3.Harakatli o‘yinlar. Bola tanasini boshqarishni, qoidalarga amal qilishni, tezlik va e‘tibor bilan ishlashni o‘rganadi. Masalan: “Tutdi-qochdi”, “Yashiringan narsa”.

4.Musiqiy va ritmik o‘yinlar. Bu o‘yinlar orqali bola musiqaga nisbatan sezgirlik, ritmni his qilish, jamoa bilan birgalikda harakat qilishni o‘rganadi.

Pedagog o‘yinni tashkil qiluvchi, yo‘naltiruvchi va kuzatuvchi sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- O‘yin uchun qulay muhit yaratadi (materiallar, makon, erkinlik);
- Har bir bolaning ishtirokini rag‘batlantiradi;
- Zarur bo‘lsa, rollarni taqsimlaydi, lekin o‘yinni nazorat qilmaydi;
- Kuzatuvlar orqali bolaning rivojlanishini tahlil qiladi;
- O‘yinni muayyan tarbiyaviy yoki ta‘limiy maqsadga yo‘naltiradi.

V.A. Suxomlinskiy ta‘kidlaganidek, bolalarning o‘yini - bu ularning fikrlashi, hayotiy tajribasi va orzularining in‘ikosi”. [5, 288.]

Shunday ekan, o'yin asosida olib boriladigan mashg'ulotlar bolaga ham ta'lim ham tarbiya berishi kerak. Bu mashg'ulotlar bolaning istiqboldagi orzularini tug'ilishiga, shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida o'yin asosida olib boriladigan mashg'ulotlar uchun namunaviy reja:

Mashg'ulot turi	O'yin turi	Ta'limiy maqsad
Matematika	"Top va sanab ol"	Son va miqdor tushunchalarini shakllantirish
Nutq rivojlantirish	"Rasmdan hikoya tuz"	Lug'at boyligini oshirish, gap tuzish
Ijtimoiy tarbiya	"Do'stim kim?" rolli o'yin	Ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash
Tasviriy san'at	"Rangli nuqtalar"	Estetik didni rivojlantirish
Jismoniy tarbiya	"Topni yetkaz"	Koordinatsiya va tezlikni rivojlantirish

2-jadval


O'yin orqali ta'lim-tarbiyaning metodologik asoslari quyidagi psixologik-nazariy yo'nalishlarga tayangan:

- ✓ **Faoliyat nazariyasi** (Leontyev, Elkonin, Galperin) – bola faoliyati orqali rivojlanadi;
- ✓ **Rivojlanishning yaqin zonasi nazariyasi** (Vygotskiy) – o'yin bola imkoniyatlarini kengaytiradi;
- ✓ **Ijtimoiy o'rganish nazariyasi** (Bandura) – bola o'yin orqali kuzatish va takrorlash orqali o'rganadi.

Maktabgacha ta'limda o'yin orqali ta'lim-tarbiya berish - bu bolaning tabiiy ehtiyojlariga mos keluvchi, quvnoq va mazmunli pedagogik jarayondir. O'yin bolalarning qiziqishini uyg'otadi, faoliyatga jalb qiladi, mustaqil va ijodiy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shunday ekan, har bir pedagog o'yinning nafaqat ko'ngilochar jihatini, balki rivojlantiruvchi va tarbiyaviy imkoniyatlarini to'liq anglab, uni rejalashtirilgan tarzda qo'llashi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim jarayoni ularning yosh xususiyatlariga, psixologik holatiga va qiziqishlariga mos bo'lishi zarur. Bu yoshdagi bolalar dunyoni bilish, o'rganishni va ijodiy fikrlashni eng avvalo **o'yin faoliyati orqali** amalga oshiradi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya mazmuni aynan o'yin orqali rejalashtirilsa, u nafaqat samarali, balki qiziqarli, quvnoq va tabiiy bo'ladi. **L.S. Vygotskiy** ta'kidlaganidek, o'yin bolaga "yaqin rivojlanish zonasi"da harakat qilish imkonini beradi. Bu orqali bola hozirgi bilim darajasidan yuqoriroq intellektual faoliyatni bajara oladi. **D.B. Elkonin** o'yinni bolalarning ijtimoiy rollarni sinab ko'rishi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va shaxsiy tajriba orttirishi uchun asosiy maydon deb hisoblaydi. **A.V. Zaporozhets** va **P.Ya. Galperin** fikricha, o'yin – bu faoliyat orqali bilimlar amalda mustahkamlanadigan vositadir.



O'yin asosida ta'lim-tarbiyani tashkil qilishda quyidagi jihatlar hisobga olinishi zarur:

1. Bola yoshi va rivojlanish darajasi.

- 3–4 yosh: asosiy e'tibor – sensor rivojlanish va nutq ko'nikmalariga.
- 4–5 yosh: tafakkur va muloqot ko'nikmalarini kengaytirish.
- 5–6 yosh: mustaqil fikrlash, sabab-oqibatni tushunish.
- 6–7 yosh: maktabga tayyorgarlik, murakkab topshiriqlarga yo'naltirish.

2. O'yin turi va shakli.

- Didaktik o'yinlar (bilim olishga yo'naltirilgan).
- Rolli (syujetli) o'yinlar (ijtimoiy-axloqiy tarbiya uchun).
- Harakatli o'yinlar (jismoniy rivojlanish uchun).
- Badiiy ijodiy o'yinlar (musiqi, teatr, san'at orqali).

3. O'yin muhiti.

- Erkin va xavfsiz makon (bolalar o'zini erkin his qiladigan).
- Rang-barang materiallar (konstruktorlar, figuralar, kartochkalar).

Pedagogik atmosfera (rag'bat, ishonch, emotsional qo'llab-quvvatlash).

O'yin asosida ta'limni rejalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat.

1. Maqsadni aniqlash. O'yin orqali qanday bilim, ko'nikma va tarbiyaviy g'oya berilishi kerakligini aniqlash. Masalan: "Geometrik shakllarni ajrata olish", "To'g'ri navbat kutish", "O'z fikrini ifodalay olish".
2. O'yin turini tanlash. Maqsadga mos o'yin turi tanlanadi: didaktik, rolli, aramatic, harakatli, ijodiy va h.k. Masalan: "Top va ayt", "Kim eng birinchi?", "Savdogar va xaridor", "Bolalar poliklinikasi".
3. Materiallar va sharoitlarni tayyorlash. O'yin uchun zarur bo'lgan o'yinchoqlar, didaktik kartochkalar, rolli atributlar va boshqalar tayyorlanadi. Sharoit bolaning faol ishtirokini ta'minlovchi tarzda tashkil etiladi.
4. Pedagogik yo'naltirish. Pedagog o'yinni boshlaydi, yo'naltiradi, kerakli savollar bilan fikrlashga undaydi. Boshqaruv erkinlikka to'siq bo'lmasligi kerak - faqat yengil yo'naltiruvchi bo'lishi lozim.
5. Kuzatuv va tahlil. Har bir bola qanday ishtirok etdi? Maqsadga erishildimi? Qanday o'zgarishlar kuzatildi? Kim yetakchilik qildi? Kim chetda qoldi?

Misol uchun "Ranglarni farqlaymiz" mavzusida o'yin asosidagi mashg'ulot

Yosh guruhi: 4-5 yosh

Maqsad: Bolalar asosiy ranglarni (qizil, sariq, ko'k, yashil) farqlay oladi.

O'yin turi: Didaktik o'yin – "Rangli poyga".

Kerakli material: Rangli kartochkalar, to'plar, halqalar.

Bosqichlar:

1. Ranglar bilan tanishtirish (pedagog bilan).
2. Har bir rangli predmetni mos joyga olib borish (harakatli).
3. O'yin yakunida savol-javob va rag'bat.

Pedagog o'yin yakunini quyidagi mezonlar asosida tahlil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mezon	Savollar
Faollik	Qaysi bolalar faol ishtirok etdi? Kim passiv bo'ldi?
Nutqiy faoliyat	Bola savollarga qanday javob berdi?
Muloqot	Guruh bilan qanday aloqaga kirdi?
Emotsional holat	O'yinni xushnudlik bilan o'ynadimi? Norozi holatlar bo'ldimi?

3-jadval

O'yin asosida ta'limni rejalashtirish – bu faqatgina bolalarning vaqtini "mazmunli o'tkazish" emas, balki ularning har tomonlama rivojlanishini tizimli yo'naltirish vositasidir. Rejalashtirilgan, maqsadli o'yinlar orqali bola:

- ✓ Mustaqil va kreativ fikrlashni o'rganadi;
- ✓ Bilimni amalda qo'llashni sinab ko'radi;
- ✓ Guruhda ishlash, navbat kutish, qoida bo'yicha harakat qilishni

o'zlashtiradi;

- ✓ O'z kuchiga ishonch hosil qiladi.

Shunday ekan, har bir maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin asosida dars rejalari pedagogik mahorat bilan ishlab chiqilishi va natijalar doimiy kuzatuv orqali baholab borilishi muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz...: Tarbiya kitobi. T., "Ma'naviyat", 2014, 28-bet.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
3. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978. pp. 102–103.
4. Эльконин Д.Б. Психология игры. - Москва: Педагогика. 1978.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.
6. Cambridge, MA: Harvard University Press. 1978. p. 109.
7. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. - Киев: Радянська школа. 1975. – С. 288.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕНТИЧНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Химониди Ильнара Мамировна

Филиал Казанского (Приволжского) федерального университета в г. Джизаке, Джизак, Узбекистан